


YANG O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

CONFERENCES.UZ 2023

DAVRIYLIGI: 2018-2023

DUNYODA BIRINCHI KASHF ETILGAN ELEKTR CHIROG'



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJY OLIY TA'LIM MUASSASALARI PROFESSOR-O'QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR VA IQTIDORLI TALABALAR

 TOSHKENT SHAHAR, AMIR TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.
 +998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00
 WWW.TAQIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ

 IYUN №53

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИННОВАЦИЯ, ФАН
ВА ТАЪЛИМ
10-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
ИННОВАЦИИ, НАУКА
И ОБРАЗОВАНИЕ
ЧАСТЬ-10**

**NEW UZBEKISTAN:
INNOVATION, SCIENCE
AND EDUCATION
PART-10**

ТОШКЕНТ-2023



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 53-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 19 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттита устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофик:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари тахтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барноҳон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўқув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҶАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

| | |
|--|----|
| 1. Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich Uzluksiz ta'limning bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini yuksaltirishdagi roli | 7 |
| 2. Qutlimuratova Laylo Ihombaevna O'SMIRLARDA IJTIMOIYLASHUV JARAYONINING MA'DANIYAT VA TA'LIMGA TA'SIRI | 9 |
| 3. Гафиятуллина Зульфира Фаридовна ИННОВАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ОБРАЗОВАНИИ | 11 |
| 4. Ismailova Sh.K, Palvonova M MUAMMOLI TA'LIM O'QUVCHILAR MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA | 13 |
| 5. Bekmurodova Hafiza Nomoz qizi O'SMIRLARDA KASBIY YO'NALGANLIK SHAKLLANISHINI TA'MINLOVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR | 16 |



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

UZLUKSIZ TA'LIMNING BO'LAJAK O'QITUVCHILAR INTELLEKTUAL MADANIYATINI YUKSALTIRISHDAGI ROLI

Qurbonov Jasurbek Akmaljonovich

Qo'qon davlat pedagogika instituti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi kafedrası, v.b.dotsenti, p.f.d (PhD)

Annotatsiya: Maqolada Uzluksiz ta'lim tizimi tushunchasi, joriy etish xususiyatlari va bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini yuksaltirishdagi roli o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim, o'quv reja va dasturlar, milliy dastur, kommunikatsiya.

XXI asrda jahon miqyosida ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida “sifatli ta'lim olish va ijodiy qobiliyatni rag'batlantirish”¹ dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchi va talaba-bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, shu asosda intellektual madaniyatini tarkib toptirishning zamonaviy ijtimoiy-falsafiy omillarini, uning ilmiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni shakllantirishning kreativ komponentlariga ustuvorlik berish, innovatsion yondashuvlar asosida olamning ilmiy manzarasini yaxlit idrok etish malakalarini tarkib toptirish zarurati mavjud.

Dunyoda bo'lajak o'qituvchilar intellektual madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari takomillashtirish, ilmiy izlanishli faoliyatga aksiologik munosabatni qaror toptirishga doir qator falsafiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishning nazariy asoslarini chuqurlashtirish, uning ustuvor yo'nalishlari va g'oyalari asosida ta'lim oluvchilarda ilmiy-innovatsion fikrlashni shakllantirishga e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta'lim tizimi bilan bog'liq. Yangi rivojlanish bosqichida uzluksiz ta'limning huquqiy asoslari yaratilgan, ushbu sohada islohotlar boshlandi. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi asosida ta'limning barcha bosqichlari, xususan oliy ta'limda tub islohotlar amalga oshirilmokda. “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish”¹ vazifalari belgilab berildi. Respublikamizda talabalikka qabul kilish, o'quv jarayonini tashkil kilish, talabalarining bilim darajasini baholash xalqaro andozalarga moslashtirilgan. Bunda ayniqsa 2019-2020 o'quv yilidan boshlab “bo'lajak o'qituvchilarimizga bir vaqtning o'zida bir nechta oliy o'quv yurtiga xujjat topshirish imkoniyatini berishimiz, o'ylaymanki, ularning ta'lim olish huquqlarini kengaytirishga xizmat qiladi”².

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar chuqurlashayotgan bir paytda korxonalar, tashkilot va turli muassasalarning boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy bilimlarni egallagan kadrlarning o'zni dolzarb muammolar qatoriga kiradi. Ushbu masalalarni takomillashtirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyev ta'kidlaydiki: "Hammamiz yaxshi tushunamizki, oldimizda turgan keng ko'lamlı vazifalarni bajarish uchun kadrlar bilan ishlashning butun tizimini takomillashtirishga doir bir qator ishlarni albatta amalga oshirishimiz kerak"³. Shuningdek, ta'lim tizimi, xususan oliy ta'limdagi ta'lim-tarbiya sifatiga doir mavjud muammolarga ham alohida e'tibor qaratib kelinmoqda.

Bu masalalarni amalga oshirishda, islohotlarni chuqurlashtirishda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, bo'lajak mutaxassislarining dunyoqarashi, ma'naviyati, iqtidori, salohiyati hal qiluvchi o'rinlardan hisoblanadi. Raqobatbardosh kadrlar faoliyatining maqsadlari, usullari to'g'ri olib borilishi boshqaruvning, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish zaruratini belgilab berdi. Shuning uchun “Tajribali pedagog va mutaxassislarni jalb etgan holda,



o‘quv reja va dasturlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur. Oldimizda bo‘lajak o‘qituvchilarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha murakkab vazifalar turibdi. Ikkinchi vazifa – umumta‘lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy o‘quv yurtlaridagi o‘qitish sifati bilan bog‘liq zamonaviy o‘quv reja va uslublarini jorish etish talab darajasida emas... Yana bir muammoni hal etish ham o‘ta muhim hisoblanadi: bu pedagoglar va professor o‘qituvchilari tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta‘lim olish, ma‘naviy-ma‘rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko‘mak beradigan muhitni yaratish zarur”¹.

Respublikamiz aholisining 60 foizdan ortig‘i bo‘lajak o‘qituvchilar ekanligidankelib chiqib, bo‘lajak o‘qituvchilarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va ularning manfaatlarini har tomonlama huquqiy himoya qilish zaruriyati mavjud. «Ma‘lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim vadolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masalahaqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda»². Shu bois, mamlakatimizda «mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalash»³ ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Oliy o‘quv yurtlaridagi islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri – bu iqtidorli talaba bo‘lajak o‘qituvchilarni aniqlash va ularning har tomonlama kamolotga erishishlarini ta‘minlashdan iborat. Mamlakatning intellektual salohiyati ham bevosita iqtidorli bo‘lajak o‘qituvchilarga bog‘liqdir. Shu bois, inson salohiyati, iste‘dod egalari, ularni ro‘yobga chiqarish va har tomonlama barkamolligini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor berdi. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tarbiyalash, ularga bilim berish, fan yutuqlaridan xabardor qilish, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga mos bo‘lgan kasblarga o‘rgatish natijasida ularning intellektual salohiyati shakllanadi. Sifatli oliy ta‘lim olish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbkorlik qobiliyati ro‘yobga chiqadi, rivojlanadi, yuksaladi va undan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratiladi.

Demokratik va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida yetuk kadrlar bilan ta‘minlash, mehnat va aql-zakovat salohiyatini mustahkamlash uchun sog‘lom siyosiy va ma‘naviy muhit yaratish zaruriyati tug‘iladi. Demokratik islohotlar tufayli ilmu fanga munosabatning o‘zgarishi negizida ma‘rifatparvarlik g‘oyalarning keng targ‘ib etilishi, ilm ahli va olimlar mehnatining davlat tomonidan munosib taqdirlanishi, olimlar obro‘sining yanada ortib borishi, ma‘naviy sog‘lom fuqaroni shakllantirishning strategik vazifalari yotadi.

Ilm-fanning jamiyatda qadriyatga aylanishi uning kishilar xulq-atvori, xatti-harakatlari va o‘zaro munosabatlarida insoniy fazilatlarining shakllanishga ta‘sir ko‘rsatadi. Bu o‘rindagi fan yutuqlaridan gumanistik ruhda samarali foydalanish va fan etikasi tamoyillariga mos ilmiy faoliyat ko‘rsatish yotadi. Fanning yuksak qadriyat ekanligi uning insonparvarlik, taraqqiyparvarlik, ijtimoiy ideallarga xizmat qilishi, umumbashariy mohiyati bilan uzviy bog‘langandir. Shu ma‘noda u xalqlarni umummanfaatlar asosida birlashtiruvchi ma‘naviy-intellektual boylik hisoblanadi, uning yutuqlaridan oqilona foydalanish esa insoniyatning nafaqat intellektual rivojlanishi, shu bilan birga ma‘naviy kamol topishiga ham xizmat qiladi.

Ta‘kidlash lozimki, respublikamizda ilmu fan sohasidagi islohotlar barkamol avlodni kamol toptirishda muhim rol o‘ynaydi, birinchidan, erkin fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ongli ishtirok etuvchi, ilm-fan-ning zamonaviy asoslari bilan qurollangan shaxsni kamol toptiradi; ikkinchidan, bu mamlakatimizda adolatli fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, yuksak rivojlangan madaniyat, yangi ijtimoiy munosabatlarning intellektual asosini vujudga keltiradi; uchinchidan, milliy g‘oyani shakllantirish, uni bo‘lajak o‘qituvchilar qalbi va ongiga singdiradigan oqi-lona tizimning amal qilishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2909 сонли Қарори./ Халқ сўзи. 2017 йил 16 май
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2018 йил 28 декабрь. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 64 б.
3. Горчицкая Е.А. Интеллектуальная элита с позиций философии: структура и функции// Вестник Омского. университета. 2011. №4. С. 207–210.



О‘SMIRLARDA IJTIMOYILASHUV JARAYONINING MA’DANIYAT VA TA’LIMGA TA’SIRI

Qutlimuratova Laylo Ilhombaevna,
Xalqaro Nordik Universiteti 1- kurs magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o‘smirlarda ijtimoiylashuv jarayoni va bu jarayonning jamiyat bilan aloqalari bog‘liqlik jihatlari yoritib beriladi. O‘smir yoshlarda ijtimoiylashuv jarayoni bevosita bolaning yoshi, ma’daniyati, o‘layotgan ta’lim-tarbiyasi, muloqot agentlari, oilasi, faoliyat turi, axloqiy tushunchalariga bog‘liq holda shakllanib boruvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: O‘smir, ijtimoiylashuv, jamiyat, ma’daniyat, ta’lim, yoshdavlari, xulq-atvor, muloqot, ijtimoiylashuv agentlari, ijtimoiylashuv mexanizmlari, psixologiya.

Bolaning ijtimoiylashuvi xususan insonning ijtimoiy moslashuvi uning hamma narsani egallashga bo‘lgan ob‘ektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo‘ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir ob‘ektiv ehtiyoj -o‘ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro‘y beradi. Bu hodisa shunda namoyon bo‘ladiki, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo‘ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo‘ladi. Psixologik pedagogik tadqiqotlarda bolaning yoshga doir xususiyatlari o‘zgarib, turli yosh davrlarida turlicha shakllanib boradi.

Ijtimoiylashuv vositalari. Inson ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo‘lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: go‘dakni emizish va g‘amxo‘rlik qilish usullari, maishiy va gigiyenik yurish-turish qoidalari, insonni o‘rab turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma’naviy madaniyat unsurlari (alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va rag‘batlantirish uslublari insonning hayotiy faoliyatidagi ko‘p sonli munosabatlari-muloqot, o‘yinlar, ma’naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug‘ullanish kiradi. Bola ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari muomala orqali-ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan hamda faoliyat bilan shug‘ullanish orqali-o‘yin, o‘qish, ijod, sport bilan shug‘ullanishi natijasidir. Psixologik-pedagogik tadqiqotlar jarayonida turli yosh davrlariga turli faoliyat turlari mos kelishi aniqlangan. Bolaning me‘yorida rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri bu muomala. Muomala faoliyatning yetakchi turlariga nisbatan quyidagi yosh davrlari qo‘llaniladi:

| Raqami | Rivojlanish davrlari | Yoshi |
|--------|--|------------|
| 1 | go‘daklik davri-bevosita hissiy-ruhiy davr | 0-1 yosh |
| 2 | go‘daklikdan keyingi davr-predmetli faoliyat davri | 1-3 yosh |
| 3 | maktabgacha davr-rolli o‘yinlar davri | 3-5 yosh |
| 4 | ilk maktab davri-o‘quv faoliyati davri | 6-7 yosh |
| 5 | o‘smirlik davri-kasb ta’limi faoliyati davri | 11-15 yosh |
| 6 | o‘spirinlik davri-shaxsiy muloqot faoliyati davri | 16-18 yosh |

Bola bu davrlarning har birida ma’lum bir ijtimoiy-psixologik, biologik rivojlanish jarayonlarini bosib o‘tadi. Ijtimoiylashuv agentlari. Insonning voyaga yetishida, uning shakllanishi jarayonida, u bevosita munosabatda bo‘lgan kishilar muhim o‘rin tutishadi. Ularni ijtimoiy pedagogikaga oid adabiyotlarda ijtimoiylashuv agentlari deb ham nomlanadi. Turli yosh davrlarida agentlarning tarkibi turli bo‘ladi. Bolalar va o‘smirlar uchun ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qarindoshlari, sinfdoshlari, do‘stlari, qo‘shnilar agent bo‘lishlari mumkin. Yoshlik davriga kelib agentlar qatoriga turmush o‘rtog‘i, hamkasblari ham qo‘shilishlari mumkin.

Ijtimoiylashuv mexanizmlari. Insonning ijtimoiylashuvi turli omillar, agentlar bilan hamkorlikda va bir qator mexanizmlar asosida amalga oshadi. Fransuz olimi Gabriel Tard Amerikalik Uri Bronfenbrenner, rus olimlari V.S.Muxina va A.V.Petrovskiylarning tadqiqotlari ijtimoiylashuv mexanizmlariga turli yondoshuvlarni keltirib chiqaradi. Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko‘p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda



jadallik bilan kechadi. Chunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi. So'nggi yillar davomida pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv va tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Ba'zi mualliflar tarbiyani ijtimoiylashuv bilan almashtirishga harakat qilishmoqda. Boshqalari tarbiyani bola ijtimoiylashuvining bir qismi sifatida o'rganishadi. Biz bolani mehnat bilan jazolash mumkinmi, deb tez-tez muzokara qilamiz. Bu muammoni o'smirlarga nisbatan qo'yadigan bo'lsak, u yanada kattaroq ahamiyat kasb etadi. Chunki, xuddi o'smirlarda axloqiy qarashlarning ma'lum tizimi ham, shu jumladan mehnatga munosabat ham tarkib topa boshlaydi. Ba'zi odamlar mehnat bilan jazolash mumkin deb qaraydilar va bu holatni oqlashga harakat qiladilar. O'smir o'z tajribasidan biladiki, katta kishilar hech qachon biron yaxshi narsa bilan jazolamaydilar. Modomiki, jazolar ekanlar, demak biron yoqimsiz narsa bilan jazolaydilar. Agar mehnat bilan jazolasalar, u paytda o'smirning ongida mehnat qandaydir mudhish narsa degan ma'lum tasavvur yuzaga kela boshlaydi. Biz o'smirning ongiga mehnat shon-sharafdir, mardlik va qahramonlikdir degan tasavvurni singdirishimiz kerak deb hisoblaymiz.

Shaxsni ma'naviy tarbiyalash uning butun umri davomida amalga oshirilishi lozim. Biroq bu vazifa individning o'smirlik davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bu davrda shaxsning ijtimoiylashuvi, ma'naviyatning negizi bo'lgan qadriyatlarni o'zlashtirish jarayoni juda tezlashib ketadi. Shaxsning ma'naviy rivojlanishiga mana shu davrda ozgina e'tiborsizlik qilinsa, u aksilijtimoiy yo'nalishga burilib ketishi, jamiyatimiz uchun yot bo'lgan mafkuralar, g'oyalar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Mana shunday noxush xolatlarni oldini olish maqsadida ota-onalar va o'qituvchilar birgalikda faoliyat yuritishi, o'smirda sodir bo'layotgan ijtimoiy-psixologik jarayonlarni kuzatib to'g'ri yo'lga yo'naltirishi, diniy va dunyoviy ta'lim-tarbiyani birgalikda olib borishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G.O.Ochilova, G.Musaxanova, R.Abdullayeva. “Pedagogika. Psixologiya” Toshkent 2019 yil, 345 bet.
2. R.I.Sunnatova, N.I.Irgashova “Bola taraqqiyotini psixologik tashxis qilish” T 2008
3. Z. Nishanova, D.Qarshieva, N.Atabayeva, Z.Qurbonova ”Psixodiagnostika va Eksperimental psixologiya” T 2018 76
4. M.I.Akimova “Psixologicheskaya Diagnostika” M 2007



ИННОВАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ В ОБРАЗОВАНИИ

Гафиятуллина Зульфира Фаридовна
Учитель начальных классов школы №38
Зангиатинского района Ташкентской области

Аннотация: В данной статье определены понятия «инновация» и «инновационный процесс» в образовательном процессе. Также обсуждаются инновационные образовательные процессы и их характеристики.

Ключевые слова: инновация, образование, профессия, процесс, педагог, проблема, образование, цель, содержание, студент, этап.

Нововведения, или инновации, характерны для любой профессиональной деятельности человека и естественно становятся предметом изучения, анализа и внедрения. Инновации сами по себе не возникают, они являются результатом научных поисков, передового педагогического опыта отдельных учителей и целых коллективов. Этот процесс не может быть стихийным, он нуждается в управлении.

Понятие —инновация— в переводе с латинского языка означает —обновление, новшество или изменение—. Это понятие впервые появилось в исследованиях в XIX веке и означало введение некоторых элементов одной культуры в другую. В начале XX века возникла новая область знания, инноватика - наука о нововведениях, в рамках которой стали изучаться закономерности технических нововведений в сфере материального производства. Педагогические инновационные процессы стали предметом специального изучения на Западе примерно с 50-х годов. Применительно к педагогическому процессу инновация означает введение нового в цели, содержание, методы и формы обучения воспитания, организацию совместной деятельности учителя и учащегося.

Инновационные образовательные процессы включают в себя две ключевые педагогические проблемы:

- Проблема анализа педагогического опыта;
- Воплощения в реальность педагогических достижений.

Итоговый результат инновационных разработок в сфере образования – применение новшеств в практической и теоретической преподавательской работе. При этом инновации в образовании предусматривают введение дополнений в цели образования, а именно:

- Создание нового содержания.
- Формирование эффективных методов и форм организации образовательно-воспитательного процесса.
- Распространение педагогического умения.
- Внедрение новейших разработок в сфере управления школой как экспериментальной площадкой.

Под инновациями в образовании понимается процесс совершенствования педагогических технологий, совокупности методов, приемов и средств обучения. Инновационные процессы в образовании рассматриваются в трех основных аспектах: социально-экономическом, психолого-педагогическом и организационно-управленческом. От этих аспектов зависит общий климат и условия, в которых инновационные процессы происходят. Имеющиеся условия могут способствовать, либо препятствовать инновационному процессу. Инновационный процесс может иметь характер как стихийный, так и сознательно управляемый. Введение новшеств — это, прежде всего, функция управления искусственными и естественными процессами изменений. А. В. Хуторской подчеркивает единство трёх составляющих инновационного процесса: создание, освоение и применение новшеств. Именно такой трёхсоставный инновационный процесс и является чаще всего объектом изучения в педагогической инноватике, в отличие, например, от дидактики, где объектом научного исследования выступает процесс обучения. Педагогическая инновация — это нововведения в педагогической деятельности, изменения в содержании и технологии обучения и воспитания. Педагогические инновации направлены на повышение эффективности воспитания и образования: введение в цели, содержание, организацию совместной деятельности учителя и учащегося.



Таким образом, понятие «инновация» и инновационный процесс заключается в формировании и развитии содержания и организации нового. Он представляет собой совокупность процедур и средств, с помощью которых научное открытие или идея превращаются в социальное, в том числе, образовательное нововведение. Нововведение при таком рассмотрении понимается как результат инновации, а инновационный процесс, в наиболее общем виде, рассматривается как развитие трех основных этапов: генерирование идеи (в определенном случае - научное открытие), разработка идеи в прикладном аспекте и реализация нововведения в практике. В связи с этим, инновационный процесс можно рассматривать как процесс доведения научной идеи до стадии практического использования и реализация связанных с этим изменений в социально - педагогической среде. Деятельность, обеспечивающая превращение идей в нововведение и формирующая систему управления этим процессом, является инновационной деятельностью.

Использованная литература

1. Никишина И.В. Инновационные педагогические технологии и организация учебно-воспитательного и методического процессов в школе: использование интерактивных форм. Волгоград, 2007
2. А. Мавлянов и соавт. Проектирование обучения передовым педагогическим технологиям. Т., 2016.
3. А. Мавлянов и соавт. Скучные технологии основаны на принципах педагогических технологий. Т., 2010.
4. Ефимов В.Ф. Использование информационно- коммуникативных технологий в начальном образовании школьников.
5. Интернет-материалы.



MUAMMOLI TA'LIM O'QUVCHILAR MANTIQUIY TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Ismailova Sh.K.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi dotsenti
+99 8(99) 553 00 81 shamsiya2021@mail.ru

Palvonova M.

Xorazm viloyati Yangibozor tumani
6-son umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi
+99 8(97) 512 82 61

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning didaktik masalalariga bag'ishlangan. O'quvchilar ilmiy tafakkurini rivojlantirishda muammoli vaziyatlarning o'ri, ilmiy mishohada, vaziyat bayoni, echim izlash algoritmi yoritilgan.

Kalit so'zlar: muammoli ta'lim, muammoli vaziyat, ilmiy tafakkur, pedagogic vositalar, dars samarasi, ilmiy-amaliy izlanish.

Bugungi kunda Respublikamizda yoshlarning har tomonlama keng bilim olishi, kasb egallashlari, o'z qobiliyatlarini yuzaga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida yoshlarning qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb qiladi.

Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Penessansni bunyod qilishdek ijtimoiy muhim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni ro'yobga chiqarish sharoitida bugungi kun pedagoglaridan yosh avlod ta'lim va tarbiyasida tashabbuskorlik, tizimlilik, ta'lim ijodkorligi hamda faoliyatga innovatsion yondashuv talab qilinadi.

Hozirgi ta'lim tizimida samarali ta'lim texnologiyalaridan biri – bu muammoli o'qitishdir. Uning vazifasi o'quvchilarni faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o'qitish ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Pedagogik adabiyotlarda muammoli o'qitishning turli ta'rif va tavsiflari bor. Muammoli o'qitishning mohiyati muammoli vaziyatni vujudga keltirish orqali o'quvchilarning yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishlariga yordam berishdan iborat.

Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular hususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat xolati emas. U bilish maqsadlari maxsus taqozo qilgan aqliy faol izlanish xolatidir. Bunday vaziyat negizida avval o'zlashtirilgan bilimlar va yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi. Yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog'lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo'lmaydi. Bunday mashaqqat aqliy izlanishni kafolatlamaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o'quvchi mashaqqat talab qilgan ob'ektning unga avval va ayni vaqtda ma'lum bo'lgan vazifa, masala bo'yicha ichki, yashirin aloqalarini anglab etadi

Muammoli ta'lim deyilganda, o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi. Shuningdek, muammoli o'qitishning mohiyatini o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o'quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o'zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

Muammoli ta'limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog'liq:

1. O'quv materialini muammolashtirish.



2. O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish.
3. Ta'lim jarayonini o'yin, mehnat faoliyati bilan uyg'unlashtirish.
4. O'qituvchi tomonidan muammoli o'qitish texnologiyaridan o'z o'rnida samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish.
5. Muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o'quvchilarga bayon etish.
6. Dars jarayonini oldindan modellashtirish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldini olish.

Muammoli ta'lim – bu o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning asosiy usuli bo'lib, insonning bilish va amaliy faoliyatini boshqaruvchi muayyan shaxsiy sub'ektiv yo'llanma sifatida tushuniladi.

Dunyoqarashni shakllantirish – bu birinchi navbatda shaxsning intellektual – faolligini shakllantirishdir. Ilmiy dunyoqarashni samarali shakllantirishning ikkita muhim sharti mavjud: o'quvchilarning tushunchalar tizimini o'zlashtirishga oid faol intellektual fikrlash faoliyati. Insonning his-tuyg'usi va emotsiyasiga ta'sir etish, uning bilimini e'tiqodga aylantirish.

Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishning bir qancha usullari mavjud. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o'ziga xos o'qitish sharoitida yuzaga keladi. Shuningdek, o'rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. Shunday qilib, o'qitishda muammoli vaziyat shunchaki «fikir yo'lidagi kutilmagan to'siq» bilan bog'langan aqliy mashaqqat holati emas.

Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:

o'quvchiga notanish faktning mavjud bo'lishi;

vazifalarni bajarish uchun o'quvchiga beriladigan ko'rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ulaming shaxsiy manfaatdorligi.

Muammoli vaziyatdan chiqa olish, hamma vaqt muammoni, ya'ni nima noma'lum ekanligini, uning nutqiy ifodasi va yechimini anglash bilan bog'langan bo'ladi.

Muammoli vaziyatni fikriy tahlil qiladigan bo'lsak, u avvalombor o'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyatidir. U o'quvchini intellektual mashaqqat keltirib chihargan sabablarni tushunishga, unga kirish, muammoni so'z bilan ifodalash, ya'ni faol fikr yuritishni belgilashga olib keladi. Bu o'rinda izchillik yorqin ko'rinadi: oldin muammoli vaziyat yuzaga keladi, so'ng o'quv muammosi shakllanadi.

Muammo uch tarkibiy qismdan iborat: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni shakllantirishga olib keladi) va avvalgi bilimlar (o'quvchilar tajribasi). Ular noma'lumni topishga yo'nalgan qidiruv ishlarini amalga oshirish uchun zarurdir. Avvalo o'quvchiga noma'lum bo'lgan o'quv muammosi vazifasi belgilanadi va bunda uning bajarilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, shunda o'quvchilar o'zlaridagi avval egallangan bilim va ko'nikmalarga asoslanib turib kutilgan natija yoki echilish yo'lini izlashga tushadi.

Shunday qilib, o'quvchilar biladigan vazifa va uni mustaqil hal kilinish usuli o'quv muammosi bo'la olmaydi, ikkinchidan, biror vazifaning echilish usullarini va uni izlash vositalarini bilishmasa ham o'quv muammosi bo'la olmaydi. O'quv muammosini echish jarayonida o'quvchilar aqliy faoliyatining muhim bosqichi uning echilish usulini o'ylab topish yoki gipoteza qo'yish hamda farazni asoslashdir.

Muammoli o'qitish mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazishning muhim tomoni shundaki, bunda o'qituvchi uning ham ta'limiy, ham tarbiyaviy vazifasini yaxshi anglab olgan bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi hech qachon o'quvchilarga tayyor yechimni berishi kerak emas, balki ularga bilimlarni olishga turtki berishi, mashg'ulotlarda va hayot faoliyatlarida zarur bo'lgan axborot, voqea, vaqt va hodisalarni ongida qayta ishJashlariga yordam berishi lozim bo'ladi.

Muammoli vaziyatlardan o'quv jarayonining barcha bosqichlarida: yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin. Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o'tish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Ахунова Г.Н., Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойихалаштириш ва режалаштириш: Ўқув-услугий қўлланма. Замонавий таълим технология серияси. – Т.: “Иқтисодиёт” нашр., 2009. 206 б.
2. Omonov H. T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat: O'zbekiston Respublikasi



oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Toshkent Moliya instituti. - T.: «Iqtisod-moliya». 2009. -240 b.

3. N.N.Azizxomayeva/ Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.

4. O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamgarmasi nashriyoti. 2006, 160 b.

5. Я.Е.Чичерина, Д.А.Нуркелдиева, Д.Б.Якубжонова. Мутахассислик фанларини ўқитиш методикаси.-Т.: “Фан ва технология, 2014, 218 бет.



O‘SMIRLARDA KASBIY YO‘NALGANLIK SHAKLLANISHINI TA‘MINLOVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Bekmurodova Hafiza Nomoz qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Email: xafiz1068@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada o‘smirlarda kasbiy yo‘nalganlik shakllanishini ta‘minlovchi psixologik omillar ta‘siri muammosi o‘rganilgan. Unda muallif tomonidan o‘smirlarga o‘quv jarayonida ma‘lum bir kasbga xos tushunchalarni berish, kasb-hunarga yo‘naltirish va kasb o‘rgatish, yoshlarning ijtimoiy-innovatsion jarayonlarga transformatsiyalashuvini ta‘minlash, o‘smirlarning ijtimoiy mobilligi va kasbiy o‘sishini ta‘minlash, kasbiy motivlarning shakllanish omillari to‘g‘risida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smir, kasb, faoliyat, moyillik, yo‘nalganlik, pedagog, o‘zini belgilash

Jahonda o‘smirlarning kasbiy intilishlarini ehtiyojlar asosida o‘z qobiliyatini to‘liq ruyobga chiqarish, o‘zini determinatsiyalash, o‘z menini shakllantirish, aktuallashtirishga nisbatan ichki moyillik, ijtimoiy munosabatlar shakllanishi, hayotining ma‘nosini topishga yo‘nalish, o‘zini mukammallashtirish, kasbiy faoliyatga ehtiyoj, motiv va stimulning mavjudligi kabi qarashlar bilan tushuntirilmoqda. O‘smirlarning kasb tanlashiga ota-ona, do‘stlar, pedagoglari kabi asosiy omillar ta‘sir etishi keltirilmoqda. Ma‘lum bir kasbning spetsifikasini anglamasdan, shunchaki yo‘qtirish yoki qiziqish kasb tanlashdagi xatolik sifatida baholanmoqda. O‘smirlarning kasb tanlashiga konseptual yondashish va kasbga yo‘naltirish markazlari faoliyatini kuchaytirish zarurligi ta‘kidlanmoqda.

Yoshlarning kasb tanlashi bugungi kunda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masala hisoblanadi. O‘zining qiziqishi va layoqatiga mos bo‘lgan kasbni tanlash hamda tanlangan kasb sirlarini chuqur egallash orqali o‘smirlar o‘zining yorqin kelajagini bunyod etadi deb aytish mumkin. O‘smirlar kasb tanlashiga ham o‘ziga xos omillar ta‘sir etadi. N.Y. Spiridonova tadqiqotida o‘smirlik davrida tanlangan kasbga qiziqish shakllanishiga ta‘sir etuvchi omillar aniqlangan bo‘lib, ota-onaning fikri va ommaviy axborot vositalari asosiy omillar sifatida namoyon bo‘lgan. Shu bilan birga belgilangan kasbiy faoliyatni tanlash ehtiyojini aniqlash uchun o‘tkazilgan so‘rovnoma natijasiga ko‘ra “kasbiy taraqqiyot imkoniyati”, “moddiy ehtiyoj” va “odamlar bilan muloqot qilish imkoniyati” asosiy ehtiyojlar sifatida keltirilgan. O‘smirlarda ma‘lum kasbni tanlashi shaxs yo‘nalganlik tiplariga bog‘liq bo‘lmagan, ammo ularda kasbni tanlash bilan shaxs emotsional yo‘nalganligi o‘rtasida bog‘liqlik namoyon bo‘lgan.

Kasb tanlash masalasida oila omili doimo yuqori o‘ringa ega. Ota-ona o‘z farzandini o‘zlari xohlagan kasbga yo‘naltirishga harakat qiladi. L.A. Golenkova o‘z tadqiqotida o‘rta umumta‘lim muassasalari bitiruvchilari kasb tanlashida oila omilini o‘rgandi. Uning ta‘kidlashicha, bitiruvchilar kasb tanlashiga ota-onaning ma‘lumot-kasbiy darajasi hamda o‘zlari va bolalar tomonidan qabul qilinishini aks ettiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy statusi; ota-onaning aktuallashtirish yoki aktuallashtirmagan shaxs sifatidagi va bolalar qadriyatlaridagi oilaviy qadriyatlar tizimi; oila a‘zolarining emotsional-xulqiy jipsligi, oiladagi liderlik, bolaning oila a‘zolari bilan emotsional yaqinligi; og‘ish yoki og‘ish bo‘lmagan shaklda ifodalanuvchi oiladagi tarbiya usuli kabi omillar ta‘sir etadi.

O‘smirlarning kasb tanlashida kasbga yo‘naltirish markazlari muhim o‘rin egallaydi. L.A. Mityurnikova aytishicha, kasbga yo‘naltirish jarayoni ushbu vazifalardan iborat: shaxsning ichki resurslari, imkoniyatlarini faollashtirish; kasbiy rejalarni amalga oshirish va kasbiy sohada o‘zini to‘liq namoyon etishga sharoit yaratish; kasbni tanlashga qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish; qayta o‘qitish yoki malakasini oshirish; yoshlarga o‘zlarining kasbiy kelajagi borasida qaror qabul qilishda faolligi, mustaqilligi va mas‘uliyatini oshirishga yordam berishdan iborat. Kasbga yo‘naltirish tizimi jamiyat sotsial institutining muhim spetsifik ko‘rinishini namoyon etib, shaxslarning ijtimoiylashuvida, ijtimoiy himoyalanganligini ta‘minlashda, ijodiy va ishlab chiqarish potensialini ochib berishda, shaxs va jamiyat munosabatlarini uyg‘unlashtirishda katta rol bajaradi.

Har bir individda biror faoliyatga nisbatan moyillik bo‘lgani kabi, o‘smirlarda ham biror kasbga nisbatan ichki moyillik va qiziqish mavjud. YE.P. Ilin kasbiy faoliyatni tanlash jarayonini moyillik bilan tushuntiradi. Uning ta‘kidlashicha, ma‘lum bir faoliyat turiga moyillikka shaxsning tug‘ma



xususiyatlari kuchli ta'sir etadi. Nerv tizimi harakatchan insonlar turli xil mazmundagi faoliyatga moyil bo'lsa, nerv jarayoni inert bo'lgan rigid shaxslar bajarilayotgan harakatning har bir jihatini chuqur tahlil qilishga moyil bo'ladi. Shu sababli ularga tez qaror qabul qilishni talab qilmaydigan vazifani bajarish qulay hisoblanadi. Kuchli nerv tizimli shaxslarning tavakkal qilishga moyilligi ekstremal faoliyatlarni bajarishga olib kelishi bilan bog'liq bo'ladi.

Shaxsning ijtimoiy faoliyatdagi asosiy maqsadi o'zini taraqqiy ettirish va namoyon etish bilan bog'liq. Bu jarayon olimlar tomonidan o'zini belgilash sifatida talqin qilinadi. N. Pryajnikov o'zini belgilash (samoopredeleniya) asosiy tiplari sifatida kasbiy, hayotiy va shaxsiy shakllarini ajratadi. O'zini namoyon etishning yuqori darajasida ushbu tiplar o'zaro bog'liq holda kechadi. Masalan, o'z ishida o'zining asosiy hayot ma'nosini anglagan kasb egasi shubhasiz o'zini shaxs sifatida ham namoyon etadi. O'zini kasbiy belgilash rasmiy xususiyatga ega ekanligi; o'zini hayotiy belgilash ma'lum ijtimoiy guruh stereotiplar, obyektiv omillariga bog'liqligi, o'zini shaxsiy belgilash shaxsni to'liq rivojlanishi rasmiy ko'rinishda emasligi hamda subyektivligi bilan belgilanadi.

Shaxs o'z hayot va kasbiy faoliyatida o'zini belgilashini olimlar turli yondashuvlar bilan yoritilgan. A. Maslou shaxs faoliyatini ehtiyojlar asosida yuzaga kelishini aytib, shaxs faoliyatiga motivatsiya beruvchi besh bosqichli ehtiyojlar iyerarxiasini modelini ishlab chiqdi. Ushbu modelda o'zini aktuallashtirish ehtiyoji eng yuqorida joylashgan bo'lib, eng oxirgi ta'minlanishini anglatadi. O'zini aktuallashtirish bosqichida shaxsning imkoniyat va qobiliyati to'liq realizatsiyasi namoyon bo'ladi. O'zini aktuallashtirish cheklanmagan bo'lib, shaxs istalgan faoliyat turida o'z qobiliyatini maksimallashtirishi va to'liq shaxs rivojlanishiga erishishi mumkin. A. Maslou ta'limotiga ko'ra, o'zini aktuallashtirish ehtiyoji shaxsning o'zidagi kamchilikni to'ldirish motivatsiyasi emas, balki intilish va erishish motivatsiyasini anglatadi. Shaxs o'zi tanlagan faoliyat turida yuqori natijaga erishishi o'zini aktuallashtirish ehtiyojining ta'minlanganligini anglatadi.

K. Rojers shaxsda o'zini aktuallashtirishga nisbatan ichki moyillik mavjud ekanligini aytadi. Shaxsda bolalik davrida bo'lgan ijobiy xohish munosabati unda o'zini aktuallashtirishga qaratilgan men-tushunchasi shakllanishiga xizmat qiladi. Teskari munosabat esa o'zini aktuallashtirish va rivojlantirishga intilishning zaiflashuviga sabab bo'ladi. Shu bilan birga ijobiy xohish shaxsning o'zidan kelib chiqadi. Rojers buni ijobiy men-xohishi bilan tushuntiradi. Ijobiy men-xohishga ega bo'lgan shaxs boshqalarga ham ijobiy xohish namoyon etadi hamda o'z faoliyatida to'liq funksional holat bilan harakat qilish darajasiga yetadi.

G. Olport har bir shaxsda xos bo'lgan individual xususiyatlarni proprium tushunchasi bilan izohlaydi. Proprium har bir individ uchun yagona bo'lib, shaxsning xatti-harakati, idroki va maqsadlarini birlashtiradi. Olport fikricha, proprium shaxsning ijobiy, ijodiy, o'sish va rivojlanishga intiluvchi shaxs xususiyatlarini namoyon etadi. Proprium insonning bir butun ajralmas qismi sifatida, faoliyatga undaydi.

Ijtimoiy-kognitiv yondashuv vakili A. Bandura o'z qarashlarida “men samaradorligi” tushunchasini kiritdi. “Men-samaradorligi” shaxsning o'z xatti-harakati, faoliyatini shakllantirish qobiliyatini anglatadi. Shaxs o'z samaradorligini baholash orqali faoliyatni tanlash imkoniyatini aniqlaydi, to'siqlar va frustratsiyani yengishga kuch beradi, ma'lum bir vazifani yechishda barqarorlikni saqlaydi. Bandura fikricha, o'zining “men samaradorligi”ni anglagan insonlar qiyin vazifalarni yechishda o'zining imkoniyatiga jiddiy shubha his qiluvchi insonlarga qaraganda katta kuch bag'ishlaydi.

Yuqorida keltirilgan tahlil asosida o'smir shaxsining kasb tanlashi muhim jarayon bo'lib, bir necha omillar ta'sirida amalga oshishi mumkin. Kasb tanlash jarayonida oilaviy qadriyatlar, o'smirning o'z qiziqishi va moyilligi, kasbga yo'naltirish markazlari va pedagoglar kabi omillar ishtirok etadi. O'smir shaxsining o'z qiziqishi, layoqati va moyilligi asosida kasb tanlashda shaxsiy qarori asosiy omil sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Спиридонова Н.Ю. Связь направленности личности с выбором профессии в юношеском возрасте. авторефер. дисс. канд. психол. наук.: 19.00.13 – М. - 2011
2. Голенкова Л.А. Социально-психологические характеристики семьи как детерминанты выбора профессии выпускниками средних общеобразовательных учреждений. авторефер. дисс. канд. психол. наук.: 19.00.05 – М. – 2011
3. Митюрникова Л.А. Комплексная система профессиональной ориентации молодежи как социальный институт общества. авторефер. дисс. канд. социол. наук.: 22.00.04 – М. –



2005

4. Ильин Е.П. Работа и личность. Трудоголизм, перфекционизм, лень.- СПб.: Питер, 2011.-224 с.

5. Пряжникова Е.Ю., Пряжников Н.С. Профорентация: учебное пособие. – М.: Изд. центр «Академия», 2008. - 496 с.

6. Schultz D., Schultz S. Theories of personality. 8th edition. USA 2005. 550 p.

7. Хьелл Л., Зиглер Д. Теории личности. СПб: Питер-2014. 836 с.

8. Bandura A. Social cognitive theory: an agentic perspective // Journal: Annual Review of Psychology Volume 52, 2001 – p. 1-26

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2023

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000